

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARINING MORFOLOGIK HAMDA SINTAKTIK
TUZILMALARI

Norboboyeva Munajat Oybek qizi

O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti xorijiy til va adabiyoti:

Ingliz tili 2-bosqich talabasi

munajatnorboboyeva3@gmail.com

Ilmiy rahbar: Rahmonova Sardora Muminjanovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi

sardorarakhmonova@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi morfologik va sintaktik tuzilmalaridagi farqlar hamda o'xshashliklar tahlil qilinadi, shuningdek, ikki tilning o'rganilish va o'qilish jarayonlaridagi o'ziga xos jihatlari ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Morfologiya, sintaksis, so'z yasalishi, morfema, gap qurilishi, struktura, affikatsiya, kompozitsiya.

Annotation: This article analyzes the differences and similarities in the morphological and syntactic structures of Uzbek and English, as well as discusses the distinctive features in the learning and reading processes of both languages.

Keywords: Morphology, syntax, word formation, morpheme, sentence structure, structure, affixation, composition

Аннотация: В данной статье анализируются различия и сходства в морфологических и синтаксических структурах узбекского и английского языков, а также обсуждаются особенности процессов изучения и чтения этих языков.

Ключевые слова: Морфология, синтаксис, словообразование, морфема, построение предложения, структура, аффиксация, композиция

Kirish

Til – ijtimoiy hodisa. U yillar davomida yangilanish bilan birga eskirib borishi ham mumkin. Shu sababli bu borada jahon tilshunosligida olimlar tomonidan tinimsiz izlanishlar olib boriladi. Ko'p tillar qatori o'zbek va ingliz tillari ham kundan kunga rivojlanish bosqichiga ko'tarilib bormoqda. Har bir til o'rganilish va o'qitilish jarayonida bir qancha bosqichlardan o'tadi. Misol tariqasida ular qamrab oladigan turli xil bo'limlarni olaylik.

Morfologiya va sintaksis bo'limlari o'zining muhimlik darajasi bilan qolganlardan farq qiladi. Morfologiya (yunoncha “morphe” - shakl, “logos” – ta'limot) so'z turkumlarini, shu bilan birga uning yasallishini o'rganuvchi bo'limdir. O'zbek tilida yangi so'zlar, asosan, ikki xil yo'l bilan yasaladi: affiksatsion va kompozitsion. Dastlab affiksatsion usulga to'xtalsa, ushbu usul so'zlarga old yoki orqa qo'shimchalarni qo'shish orqali hosil qilinadi. Masalan, “be+odob”, “no+qulay”, “ser+hosil” so'zlari old so'z yasovchi qo'shimchalar orqali hosil

qilingan bo'lsa, "meva+li", "shifo+kor", "gul+iston" so'zlari ko'makchi morfema (qo'shimcha)ni so'zning oxiridan qo'yish orqali yangi yetakchi morfema (yangi asos) yasaldi.

O'zbek tilida kompozitsion usulda yasalgan so'zlar "asos+asos" tipida shakllangan bo'ladi. "Kunga+boqar", "qo'zi+qorin", "Qor+qiz" kabilar fikrimizning isbotidir. Bundan tashqari "taq etmoq", "hazil qilmoq" singari bir biriga qo'shib yozilmaydigan yasama yetakchi morfemalar ham mavjud. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, affikatsion usul orqali yasalgan so'zlar tilimizda sodda so'zlarni yasasa, kompozitsion yo'l bilan hosil qilingan so'zlar esa qo'shma so'zlar degan terminni tilimizga olib kiradi. O'zbek tili agglutinatsion (qo'shimcha qo'shish) til sifatida ko'proq qo'shimchalar yordamida so'zlar yasashni amalga oshirsa, ingliz tili analitik (so'z birikmalariga tayanadigan) til bo'lib, so'zlar orasidagi bog'lanishlarni yordamchi so'zlar va tartib bilan ifodalaydi. Biroq bu ikkala tilning morfologik jihatdan o'xshash tomonlari shundaki, so'z yasalishi deyarli bir xil. Quyida aniq namunalarni ko'rishimiz mumkin:

1) Affikatsiya (Prefiks va Sufiks qo'shish):

- "un" prefiksi + "happy" = unhappy (baxtsiz)
- "dis" prefiksi + "agree" = disagree (rozi bo'lmaslik)
- "quick" + "ly" sufiksi = quickly (tezda)

2) So'z birikmasi (Compounding):

- "tooth" + "brush" = toothbrush (tish cho'tkasi)
- "snow" + "man" = snowman (qor odam)
- "sun" + "flower" = sunflower (kungaboqar)

3) Qisqartirish (Abbreviation):

- ATM = Automated Teller Machine (avtomatik kassir mashinasi)
- Info = information (ma'lumot)
- TV = Television (televideniye)

Bunga qo'shimcha tarzda Ingliz tilida so'z yasalishi (word formation) quyidagi yo'llar bilan ham amalga oshiriladi:

4) Blending (aralashtirish):

- Smoke + fog = smog (tuman + tutun = smog)
- Breakfast + lunch = brunch (nonushta + tushlik = brunch)

5) Backformation (orqaga qaytarish):

- Editor → edit (tahrirchi → tahrir qilmoq)
- Donation → donate (xayriya → xayr qilmoq)

Ingliz tilida so'z yasalishining bunday usullari tilni boyitib, yangi tushunchalar va ma'nolarni ifodalashga yordam beradi. Har bir usul tilda yaratilgan yangi so'zlarning o'ziga xos grammatik va semantik xususiyatlarini belgilaydi. Shu tarzda dunyodagi ko'plab tillarda yangi so'zning paydo bo'lishi bilan bir qatorda, uning ot, sifat, son, fe'l, ravish, olmosh, ko'makchi, bog'lovchi, yuklama singari mustaqil va yordamchi so'z turkumlari (sinfi) ham

shakllanadi. Ushbular morfologiya bo'limining eng asosiy funksional jihatlaridir. Til o'rganish va o'rgatishdagi navbatdagi muhim bo'lim - sintaksisdir. Biz bu narsa haqida maktab darsliklarida ko'p bora o'qiganmiz, internet platformalaridagi ba'zi ma'lumotlarga ko'zimiz tushgan. Sintaksis so'zi yunoncha "syntaxes" so'zidan olingan bo'lib, lug'aviy ma'nosi "tartib", "qurilish", "tuzilish" degan ma'nolarni anglatadi. Tilshunoslikda esa sintaksis quyidagicha ta'riflanadi: Sintaksis — gap tarkibidagi so'zlarning o'zaro bog'lanishi va joylashish tartibini, shuningdek, gapning tuzilishini va turini o'rganadigan tilshunoslik bo'limi. Masalan, "Men kitob o'qiyman" gapida so'zlarning ketma-ketligi va bog'lanish qoidalari sintaksis qoidalariga asoslangan.

O'zbek tilida gapda so'zlarning bog'lanishi gap bo'laklari degan atamaga borib taqaladi. Buni bir oila misolida ko'rish mumkin: ota-ona bosh bo'lak (ega va kesim), farzandlar esa ikkinchi darajali bo'laklar (hol, to'ldiruvchi, aniqlovchi) rolini o'ynaydi. O'zbek tilida bosh bo'laklar gapning boshi va oxirida kelsa, ikkinchi darajali bo'laklar gapning o'rta qismida kelishga odatlangan. Misol uchun:

- O'quvchilar (ega) barcha (aniqlovchi) topshiriqlarni (to'ldiruvchi) to'g'ri (hol) bajarishdi (kesim).

Bu odatiy tartib deb ham yuritiladi. Bundan tashqari tilimizda o'zgargan tartib - inversiya ham mavjud. O'zgargan tartibda yuqoridagi struktura tizimi buziladi, ya'ni ba'zi bir bosh va ikkinchi darajali bo'laklar o'zni almashib ketad. U ko'proq she'riyatda uchraydi:

Oq yo'rgakka o'ragansan o'zing bizni,
Ham oq yuvib-taragansan o'zing bizni.
Beshigimiz uzra bedor ona bo'lib,
Kunimizga yaragansan o'zing bizni.
Fidoying bo'lgaymiz seni, O'zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!

(Muhammad Yusuf)

Bu she'rning deyarli har bir misrasida inversiyaning yaqqol misolini ko'rishimiz mumkin. Quyida esa uning inversiyayiz shakli keltirilgan:

O'zing bizni oq yo'rgakka o'ragansan,
Ham o'zing bizni oq yuvib, oq taragansan,
Beshigimiz uzra bedor ona bo'lib,
O'zing bizni kunimizga yaragansan,
Seni fidoying bo'lgaymiz, O'zbekiston!
Seni hech kimga bermaymiz, O'zbekiston!

Ko'rinib turibdiki, sintaktik jihatdan so'zlar tartibini o'zgartirish ham ma'lum bir maqsadda xizmat qilgan ekan.

Ingliz tilida esa gap qurilish tizimi biroz o'zgacha. Inglizabon mamlakatlardagi odamlar nutq hosil qilish jarayonida S – V – O strukturasiga amal qiladilar. Ya'ni bu Subject – Verb – Object (Ega + kesim+ to'ldiruvchi) deya tavsiflanadi. Masalan:

- I (subject) love (verb) my country (object).
- The sun (subject) is (verb) shining today.
- She (ega) speaks (kesim) English (to'ldiruvchi), and he speaks French.

Demak, bundan ingliz tilida bosh bo'laklar gapning boshida, ikkinchi darajali bo'laklar esa oxirida kelishini anglab olishimiz mumkin. Shu tariqa, avvalo gap, keyin esa gapning bir necha turlari shakllanib boraveradi.

Xulosa.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'zbek va ingliz tillarining morfologik va sintaktik tuzilmalari o'rtasidagi farqlar nafaqat lingvistik jihatdan, balki madaniy o'ziga xosliklarni ham aks ettiradi. Bu ikki tilning o'ziga xos qirralarini o'rganish, ularning grammatika va gap tuzilishidagi nozikliklarini tushunishga yordam beradi. Shuningdek, tilshunoslar uchun bu farqlarning tahlili o'zaro til o'rganish va o'qitish jarayonlarini mukammallashtirishda muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://econferenceseries.com/index.php/iec/article/view/730>
2. [http://ilmiy.bmti.uz/blib/files/87/M.%20Abuzalova%20-%20Hozirgi%20o%60zbek%20tili%20\(morfologiya\).PDF](http://ilmiy.bmti.uz/blib/files/87/M.%20Abuzalova%20-%20Hozirgi%20o%60zbek%20tili%20(morfologiya).PDF)
3. Nurutdinova, Z. Ingliz tilidagi asosiy qoidalar. Toshkent: YURIST-MEDIA MARKAZI, 2011. 76 bet.
4. Jamolxonov, H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Talqin, 2005
5. Erkaboyeva, Nargiza. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami. Toshkent Akademnashr, 2016. 400 bet.